

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 7-oktabr № 11 (1557)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

KORRUPSIYA

Faqat birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan kombinatda korrupsiyaga o'rin bo'lmaydigan ishonch va adolat muhitini yaratish mumkin.

2 ➔

MA'NAVIYAT

Yoshlarni kitob o'qishga qiziqtirish, ularning ma'naviyatini oshirish o'rniga nega kutubxona, kitob do'koni yopildi?

3 ➔

BILASIZMI?

O'zbekiston metallurgiya zavodi qachondan foyda hisobiga ishlay boshlagan, nega "Mehnat shuhrati" kitobiga kiritilgan?

4 ➔



YOSHLAR MURABBIYI – METALLURGIYA FIDOYISI

Shunday insonlar borki, ular bilan bir bor uchrashsangiz, qalbingizda iz qoldiradi. Olim To'ychiyev ana shundaylardan. Uning oddiy, ammo sharaflı hayoti bekobodlik metallurqlar uchun ibrat maktabi bo'la-di.

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan "O'zmetkombinat" AJda tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Unda korxona rahbariyati, faxriy ustoz-metallurqlar, faol ishchi-xodimlar va yoshlar ishtirok etishdi.

Tadbir jarayonida 40 yillik mehnat yo'lini ortida qoldirgan, yuzlab shogirdlar tarbiyalagan, o'z kasbiga sadoqat ko'rsatib ishlagan inson – Elektrda po'lat eritish bo'linmasi katta po'lat erituvchisi, O'zbekiston Qahramoni Olim To'ychiyev pensiyaga kuzatildi.

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – bosh direktor Bahodir Abdullayev fidokor ustozning mehnat yo'liga yuksak baho berib, unga samimiy minnatdorchilik bildirdi. Ustozga milliy libos kiydirilib, tashakkurnoma hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Shuningdek, boshqa faxriy ustoz-metallurqlar ham esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

(Davomi 2-betda).

2025-YIL – "ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL IQTISODIYOT" YILI"

METALLURGIYA VA EKOLOGIYA

"O'zmetkombinat" AJ Respublika qora metallurgiya sanoatining yetakchi korxonalaridan biri hisoblanadi. Korxona texnologik yangilanishlarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mahsulot sifatini oshirishga katta e'tibor qaratadi. Bugungi kunda kombinat o'zining zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari, innovatsion yondashuvlari va xalqaro bozorlardagi ishonchli hamkorligi bilan ajralib turadi, biroq kombinatning rivojlanishi bilan birgalikda ekologik muammolar ham ortib bormoqda. Bu maqolada kombinatni rivojlantirish bilan bog'liq asosiy masalalar va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish yo'llari muhokama qilinadi.

TEXNOLOGIK INNOVATSIYALAR VA AVTOMATLASHTIRISH

"O'zmetkombinat" AJ innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida doimiy ishlamoqda. Zamonaviy laboratoriyalar va sinov markazlari orqali mahsulot sifati doimiy ravishda nazorat qilinadi. Bundan tashqari, korxona energiya tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish va uglerod

chiqindilarini kamaytirish bo'yicha xalqaro talablarga javob beradigan loyihalarni amalga oshirmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlik va mahsulot sifati yanada oshirilmoqda.

XALQARO HAMKORLIK VA EKSPORT

Kombinat o'z mahsulotlarini nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham keng tarqatib kelmoq-

da. Korxona Rossiya, Xitoy, Turkiya, Yevropa davlatlari va boshqa mamlakatlarga eksport faoliyatini yo'lga qo'yan. Xalqaro hamkorlik doirasida yetakchi kompaniyalar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzilgan bo'lib, mahsulot sifati va yetkazib berish jarayonining aniqligi bo'yicha yuqori standartlar joriy etilgan.

EKOLOGIK MAS'ULIYAT VA BARQAROR RIVOJLANISH

"O'zmetkombinat" AJ ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida zamonaviy ekologik toza texnologiyalarni joriy etib kelmoqda. Atmosfera chiqindilarini kamaytirish, suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlar bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Korxona atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro talablarga javob

beradigan strategiyalarni ishlab chiqarmoqda va amalga oshirmoqda.

KELAJAK REJALAR VA STRATEGIK MAQSADLAR

"O'zmetkombinat" AJ o'z oldiga quyidagi strategik maqsadlarni qo'yan:

- Mahsulot assortimentini kengaytirish va xalqaro bozorda ishonchli o'rin egallash;
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish;
- Ekologik toza texnologiyalarga sarmoya kiritish va barqaror rivojlantirishga intilish;
- Xodimlarning kasbiy o'sishiga ko'maklashish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish.

(Davomi 3-betda).

KORRUPSIYAVIY XAVFLARGA QARSHIMIZ

“TOZA QO‘LLAR – MUSTAHKAM METALL”

Korrupsiya – jamiyat asoslarini yemiruvchi, davlat va iqtisodiyot rivojiga to‘sqinlik qiluvchi illatdir. U xuddi zangga o‘xshaydi: mayda-chuyda narsalarda sezilmay paydo bo‘ladi, lekin eng mustahkam konstruksiyalarni asta-sekin yemiradi. Sanoat korxonasi uchun korrupsiya, ayniqsa, xavfli bo‘ladi, chunki bu yerda ulkan moliyaviy oqimlar, murakkab ishlab chiqarish jarayonlari va ko‘plab odamlarning manfaatlarini birlashadi.

Korrupsiya ko‘rinishlari paydo bo‘lgan joyda korxona puldan ko‘ra ko‘proq zarar ko‘radi. U vaqtni yo‘qotadi, o‘z xodimlari, hamkorlari va jamiyatning ishonchini yo‘qotadi. Har bir samarasiz xarid, har bir adolatsiz shartnoma, jamoa hisobidan shaxsiy manfaat ko‘rishning har bir holati poydevorga – minglab mutaxassislarning halol mehnatiga putur yetkazadi, metallsiz mamalakat taraqqiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Metallurgiya sohasi azaldan kuch va ishonch



**KORRUPSIYA
TARAQQIYOT
KUSHANDASI**

timsoli bo‘lib kelgan. Biroq metall mustahkam bo‘lishi uchun tizimning o‘zi ham shaffof va adolatli bo‘lishi kerak. Shu boisdan bugungi kunda korrupsiyaviy xavflar haqida gapirish, ayniqsa, dolzarbdir. Axir xavflar yo‘q joydan paydo bo‘lmaydi – ular kundalik jarayonlarda: resurslarni taqsimlashda, shartnomalar tuzishda, kadrlar bo‘yicha qarorlarda yashiringan bo‘ladi. Nazorat yo‘q joyda butun mexanizmga

darz ketishi mumkin.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki: korrupsiyaning oldini olish mumkin va zarur. Bugungi kunda kombinatda komplaens-nazorat va ichki audit tizimi joriy etilib, ochiq va halol hamkorlik uchun sharoitlar yaratilmoqda. Biroq halollik madaniyati va “toza qo‘llar” tamoyili bo‘lmasa, hech qanday qoida samara bermaydi. Bu yerda har bir xodimning hissasi muhim – rahbardan tortib uskuna oldidagi ishchigacha.

Faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan korrupsiyaga umuman o‘rin bo‘lmaydigan ishonch va adolat muhitini yaratish mumkin. Shunda “O‘zmetkombinat” Ajda eritilgan metall nafaqat texnik mustahkamlik va sifat, balki butun jamoaning ma’naviy pokligi ramzi bo‘ladi.

G‘ayrat DAMINOV,

Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori.



YOSHLAR MURABBIYI – METALLURGIYA FIDOYISI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Olim 1985-yilda, 20 yoshida kombinatning Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasiga ishga kirgan. Ilk qadamlarini po‘lat erituvchi yordamchiligidan boshlagan bu yigit jamoada mehnatsevarligi, bilimga chanqoqligi va mas’uliyat hissi yuqoriligi bilan o‘z o‘rnini topdi. 1997-yilga kelib u katta po‘lat erituvchi vazifasiga tayinlandi.

Bu kasbni dunyodagi eng og‘ir mashaqqatli kasblardan biri deyish mumkin. Sababi, o‘ta yuqori issiq haroratda, xavfli ishlab chiqarish ob’ektida yillar davomida ishlash kishidan katta sabr-toqatni talab qiladi.

Qandayligidan qat’iy nazar, ishxonasi uning ikkinchi uyidek bo‘lib qoldi. Hamkasblar bilan muloqot qilish, yoshlarga bilmaganlarini o‘rgatish uning diliga zavq bag‘ishlardi.

Olim To‘ychiyevning xizmatlari yuksak darajada qadrlandi. 2004-yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” unvoni, 2009-yilda esa yurtimizdagi eng oliy mukofot – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi.

Bugungi kunda u nafaqat metallurgiya sohasida, balki jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etmoqda. Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashi deputati sifatida viloyat rivojiga daxldor muhim qarorlarni qabul qilishda ishtirok etyapti.

– “Odamlar muammosini eshitib, ularga yechim topishga yordam berish – bu ham ibrat, ham mas’uliyat. Men bu ishni faxr bilan bajaraman”, – deydi Olim aka.

Pensiyaga kuzatish – bu faqat xayrlashuv emas. Bu minnatdorlik, e’tirof, fidokorlikka berilgan yuksak bahodir. Olim To‘ychiyev – faqatgina yaxshi ishchi emas, balki haqiqiy ustoz, insonparvar va xalqparvar shaxs. Uning nomini hurmat bilan tilga oladiganlar ko‘p. Chunki u – haqiqiy xalq farzandi.

Ismat DIYOROV.

YONG‘INDAN OGOHLIK – XAVFSIZ HAYOT GAROVI

Mamlakatimizda 15-sentabrdan 15-oktabrga qadar “Yong‘indan ogohlik” umummilliy kompaniyasi oyligi o‘tkazilmoqda. Oylilik davomida “O‘zmetkombinat” Ajda ham OYOXTTEB hamda Favqulodda vaziyatlar bo‘limi tomonidan metallurglar bilan profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, is gazidan zaharlanishning oldini olish, elektr jihozlaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha ishchi-xodimlar bilan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Uch-rashuvlarda mutaxassislardan tomonidan yong‘in paytida to‘g‘ri harakat qilish, evakuatsiya qoidalarini, birinchi yordam ko‘rsatish usullari bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berilmoqda.

Shu kabi tadbirlar Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasi, “Bekobod emal” korxonasi, Ovqatlanish kombinati kabi jamoalarda ham tashkil etildi.

“Yong‘indan ogohlik” oyligi davomida amalga oshirilayotgan ishlar esa xavfsiz hayot, osoyishta turmush va sog‘lom jamiyat sari muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda.

Diyorjon NAMOZOV,

“O‘zmetkombinat” Ajning OYOXTTEB katta inspektori, katta leytenant.



SO‘RAGAN EDINGIZ

SOG‘LIQQA ZARARLI BO‘LSA NIMA QILISH KERAK?

Ish jarayonida xodim sog‘lig‘iga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni bajarishni rad etsa bo‘ladimi?

B. Inomov.

Xodim ish jarayonida o‘z hayotiga va sog‘lig‘iga tahdid soladigan holatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida ish beruvchini darhol xabardor qilib, o‘z hayotiga va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi holatlar bartaraf etilguniga qadar tegishli ishlarni bajarishni rad etishga haqli. Ana shu davr mobaynida xodimning o‘rtacha ish haqi saqlanadi. Bu haqda Mehnat kodeksining 358-moddasida belgilangan.

Biroq ishchi-xodimning hayotiga va sog‘lig‘iga xavf soladigan holatlar yuzaga kelmaganligi aniqlansa, ish beruvchi ushbu Kodeksning 302-311 moddalarida belgilangan tartibda xodimga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishga haqli.

TARTIB YANGILANADI

Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Umumiy ovqatlanish korxonalarida hosil bo‘ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi.

Hujjatga ko‘ra, 2026—2030-yillar “Dolzarb oziq-ovqat xavfsizligi davri” deb e’lon qilinadi. Bunda aholi ehtiyojiga yetarli darajada va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish choralari ko‘riladi.

Bu qaror asosida “Oqilona iste’mol” (Save food) dasturini amalga oshirish doirasida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar belgilangan tartibda o‘tkazilishi qat’iy nazoratga olinadi.

Asosiy tartiblar:

To‘y va ma’rakada 200 nafargacha, osh marosimida 250 nafargacha kishi qatnashishi mumkin.

Qo‘shaloq to‘ylarda 250 nafargacha, osh marosimida esa 300 nafargacha kishi ishtirok etadi.

Milliy an’analarga yot, ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladigan rasm-rusumlar (kuyov navkari, chorlar, sep yoydi, quda chaqirdi, kelin chaqirdi va h.k.) man etildi.

METALLURGIYA VA EKOLOGIYA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

YECHIMLAR VA EKOLOGIK BARQAROR RIVOJLANISH

Kombinatda ekologik muam-molarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar ko'rilishi lozim:

- zamonaviy filtrlardan foy-dalanish va chang-gaz toza-lash uskunalarini yangilash – bu havoga chiqadigan zararli gazlar-ni kamaytiradi;

- bo'linmalardagi turg'un if-loslantiruvchi manbalarga chang-gazlarni avtomatik monitoring qilish uskunalarini o'rnatish – bu manbalardan tashlanayotgan gazlarni boshqarish atrof-muhit-ga tashlanayotgan zararli gazlar miqdorini ruxsat etilgan me'yor-lardan oshib ketmasligini doimiy tarzda monitoring qilib turish;

- oqova suvlarini tozalash in-shoatlarida tejamkor suv tozalash uskunalarini o'rnatish – tashlama suvlarni tozalash va atrof-muhit-ga ta'sirini kamaytirish;

- hosil bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish – ishlab chiqarish-da hosil bo'lgan texnologik chiqin-dilarni kimyoviy kelib chiqishiga ko'ra ikkilamchi xomashyo si-fatida foydalanish;

- "Yashil metallurgiya" tamoyil-larini tatbiq etish – energiya tejamkor texnologiyalardan foy-dalanish va elektr energiya gaz-larda tejamkorlikka erishish;

- ishlab chiqarishni raqam-

lashtirish va monitoring tizimla-ri orqali nazoratni kuchaytirish –odam omilini kamaytirish va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yuqori aniqlikka erishish;

- maxsus poligonlar tashkil etish – ishlab chiqarishda hosil bo'lgan texnologik chiqindilar-ni ekologik jihatdan atrof-muhit-ga zarar yetkazmasdan vaqtincha saqlash;

- chiqindilarni saralash may-donchasi tashkil etish – hosil bo'lgan har xil turdagi chiqindilar-ni saralash va ularni tashqi iste-molchilarga ikkilamchi xomashyo sifatida sotish.

Qora metallurgiya sanoati-ni rivojlantirish iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lsada, atrof-muhitni muhofa-za qilish masalasi ham shunchalik dolzarb hisoblanadi. Yuqoridagi-larni inobatga olib "Tabiatni muho-faza qilish" to'g'risidagi O'zbekis-ton Respublikasi qonuni va boshqa ekologik me'yoriy huquqiy hujjat-lar talablarini bajarilishi yuzasi-dan nazorat o'rnatilishi lozim. Shu boisdan, innovatsion yondashuv, yashil energiya samaradorligidan foydalangan holda ekologik stan-dartlarga rioya qilish va davlat siyosatining to'g'ri yo'naltiri-lishi sohaning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xayrulla FAYZIYEV,
Komplaens xizmati menejeri.

O'g'irlik, tashmachilik har qanday jamiyat uchun jiddiy muammo va zarar keltiradi. Bu jinoyat nafaqat moddiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi, balki odamlar o'rtasida ishonchsizlik va xavfsizlik hissi-ni ham pasaytiradi. Shu bois, bunday huquqbuzarliklarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda.

ISHXONAGA ZARAR KELTIRMANG!

Joriy yilning 9-may kuni soat 12.00larda Eshmat Ashirov, Sher-zod Qo'shboqov, Egamqul Rustam-ov, Sherqo'zi Eshqo'ziyev va Bekna-zar Muratov (Ism va familiyalar o'zgartirilgan) o'zaro til biriktirib, "Renaissance" MCHJga qarashli mis kabel bo'laklari va skotchlarni yashirin ravishda talon-toroj qil-ishni rejalashtiradilar.

E. Ashirov boshqaruvidagi "O'zmetkombinat" AJ hududidagi "Damas" rusumli avtomashinaga Sh. Qo'shboqov, E. Rustamov va Sh. Eshqo'ziyev jami qiymati 11 100 000 so'm bo'lgan 310 kilogramm mis kabel bo'laklari va 2 quti – 120 dona skotchni yuklashgan. Keyin, kelishuvga muvofiq, Eshmat Ash-irov boshqaruvidagi avtomashi-na "O'zmetkombinat" AJ qo'riqchi-si Beknazar Muratov tomonidan 6-sonli nazorat o'tish joyiga bosh-qarib borilgan va darvozadan chiqarilgan.

Biroq, ularning harakatlari tezda oshkor bo'lib, sud oldida javob berishga majbur bo'lishdi.

4-sentabr kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi binosida, ochiq sud majlisida bu ma'muriy ish ko'rib chiqildi. Sud huquqbuzarlarga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan



jarima jazosini qo'llashni lozim deb hisobladi.

Huquqbuzarlarga nisbatan ba-zaviy hisoblash miqdorining 1 baravari – ya'ni 375 000 so'mdan bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari – 1 875 000 so'mgacha jarima jazosi qo'llanildi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sud'yasi.

KITOBGA MUNOSABAT

KUTUBXONA VA KITOB DO'KONI NEGA YOPILGAN EDI?

O'tgan hafta "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direk-tori Bahodir Abdullayev ishchi-xodimlarning murojaatlari bo'yicha shaxsiy qabulini o'tkazdi. Qabulda barcha arizalar diqqat bilan ko'rib chiqilib, xodimlarni qo'llab-quvvatlash va mehnat sharoitlarini yax-shilashga qaratilgan ko'p masalalar bo'yicha ijobiy qarorlar qabul qilinishi ushbu maqolani yozishimga turtki bo'ldi. Balki bu maqolada ko'tarilgan masala ham ko'ngildagidek yechimini topar...

Insonlar ma'naviy ozuqani qaerdan olishini bilasizmi?

Asosan "bilimlar manbai" bo'lmish kitobdan olishadi. Tele-videnie va radio, internet, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyati va afzallik-larini inkor qilmagan holda aytish mumkinki, bularning hech biri kitob o'rnini bosa olmaydi. Lekin afsuski, bugungi kunda oramiz-da bu bebaho-ma'naviy boylikdan bahramand bo'lish o'rniga ijt-i-moiy tarmoqlarda vaqtini behuda o'tkazayotgan yoshlar ko'payib ketdi.

Ishxonalarda ham xodimlar-ni mana shunday vositalar orqali tarbiyalashga e'tibor sust. Hatto bu boradagi Prezident qarorlari ham bajarilmayapti. To'g'rirog'i qaror chiqadi-yu hamma, ayniqsa, rahbarlar o'zlarini bu qarorlarni astoydil bajarayotgandek ko'rsa-tadi. Vaqt o'tishi bilan boshlangan

ishlar to'xtatiladi.

"Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaa-si va kitobxonlik madaniyati-ni oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbir-

lar dasturi to'g'risida" Prezident qaroridan so'ng kombinatda kitob do'koni ochilgan edi. Katta tan-tanalar bilan ochilgan bu do'kon kombinat markazida, ijro appara-ti binosi yonida faoliyatini boshla-gandi. Metallurglar oylik mehnat haqlari hisobidan bu do'kondan kitoblar sotib olishardi. Sotuvchi-lar ham, ishchi-xodimlar ham xur-sand edilar.

Vaqt o'tishi bilan bu kitob do'koni bir necha marta joy-dan-joyga ko'chirildi. Hattoki

oylik maosh hisobidan kitob olish ta'qiqlandi. Natijada ko'p o'tmay – o'tgan yili bu kitob do'koni yopilib ketdi.

Qarang-a mehnat haqi hiso-bidan shu atrofda do'konlar-dan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishingiz, ovqatlanishin-giz mumkin. Kitob olish mumkin emas.

Kombinat kasaba uyushma qo'mitasining yaxshi kutubxona-si bor edi. Bu ziyo maskani orqali metallurglarni badiiy kitoblar-ni o'qishga qiziqtirish o'rniga bu kutubxona ham yopildi.

Mana Prezident qaroriga muno-sabat.

Kasaba uyushma qo'mita-si kutubxonasi, kitob do'konlari faoliyati metallurglar uchun ham beqiyos ma'naviyat va ma'rifat sarchashmasining bir bulog'i edi. Afsuski bu buloqlar yopildi. Endi-likda yangi rahbariyat metallurg-larga g'amxo'rlik qilishga alohida e'tibor qaratayotganligi tufayli ularni qaytadan ochish masala-si ham ijobiy hal etalishiga umid paydo bo'ldi

Diyor ZULFIQOROV.



BOLA SHODLIGI – OLAM SHODLIGI

Nega insonlar chaqaloqlarga, yosh bolalarga maftun bo'ladi, ularni erkalaydi, mehr va e'tibori ni ayamaydi?

Chunki ular – hayotning eng sof, eng ilohiy tarovatli gullari. Ular hali dunyo g'arazlaridan, insoniyatning makkorlik va manmanligidan yiroq. Bolaning qalbi ortiqcha niyatlardan xoli, go'yo toza oyna – unda faqat muhabbat, samimiyat va ishonch aks etadi.

Ularning bir tabassumidan yorug'lik sochiladi, bir qarashidan xotirjamlik ufuriladi. Kulgulari shunday samimiyki, hatto dardga botgan inson yuzida ham bir lahza tabassum paydo qiladi. Shuning uchun bolalar hayotga mazmun, xonadonlarga baraka olib kiruvchi nur kabi.

Bola shunchaki quchoqlansa, go'yo yuraklar muzdan erib, atrofga insoniylik nafasidagi illiqlik yoyiladi. Shu bois xalqimiz bejizga aytmagan:

"Bola shod bo'lsa, uy shod, uy shod bo'lsa, el shod!"

Diyor ISMATOV.



HADISLAR BO'STONI

Sizlardan birortangiz o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani birodari uchun ham ravo ko'rmaguncha, mo'min bo'la olmaydi.

Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari.

Maslahatni aql egalaridan so'ranglar – to'g'ri yo'l topasizlar. Ularning aytganidan chiqmang – pushaymon bo'lasizlar.

Kim bir musulmonning gunohini yashirsa, Alloh uning gunohini dunyoda ham, oxiratda ham yashiradi.

Siz yaxshilikni unga munosib bo'lganga ham, bo'lmaganiga ham qilavering. Agar siz ezgulikka loyiq odamni topsangiz, demak, u ezgulik ahlidir, agar unday odamni topmasangiz, demak, siz o'zingiz ezgulik ahlidansiz.

Kimki yaxshilik ko'chatini qadasa, orzu qilgan hosilini yig'ib oladi va kimki yomonlik urug'ini sepsa, afsus-nadomat mevasini terib oladi.

Imom Buxoriy rivoyatlari.

To'plovchi Ibrohimjon domla INOMOV.

DILNI OG'RITMA!

Hech qachon biror insonning ko'nglini og'ritmagin. Chunki o'sha inson seni kechirmaguncha Alloh seni kechirmaydi.

Bu dunyo qaytar dunyo!

Tuhmat ham, g'iybat ham bir kun kelib sening yoki suyganingning hayotidan albatta qaytadi. Dilni og'ritishdan qo'rq! Chunki sen bu dunyoda faqat bandasan!

Boshqa hech kim!!!

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARI

- * Ustoz otangdan ulug'.
- * O'z bilganingda bo'lma, ustozing bilganidan qolma.
- * Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil.
- * Bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal.
- * Ko'p yurgandan so'rama, ko'p ko'rgandan so'ra.
- * Ko'p yashaguncha, ko'p bil.
- * Qari bilganni pari bilmas.
- * Yoshlikda o'rgangan hunar, o'zingga o'ljaga qolar.
- * Ishni istaganga emas, bilganga topshir.

IBRATLI QISQA HIKOYALAR



USTOZLIK SAN'ATI

Talabalar:

– Darsingizni yaxshi anglaymiz, butun vujudimiz bilan tinglaymiz. Lekin kitobni o'qisak, shunchalik lazatlanmaymiz.

Ustoz:

– Asal gul shirasidagi ta'mdan paydo bo'ladi. Gullarni yeb ko'rgan-

misiz? Ular achchiq ta'mli. Ilm ham shunday: ustoz ko'p manbadan bilim olib, uni asal kabi mazali qilib sizning oldingizga qo'yadi.

MASLAHAT

Hayotda ishi yurishmagan kishi omadli tanishidan:

– Yo'q demasangiz Sizdan bir narsa so'ramoqchiman.

– Faqat ko'p narsa so'ramang.

– Menga arzimagan vaqtingizni ajratib, ishim yurishib ketishi uchun maslahat berishingizni so'ramoqchiman.

– Siz mendan ko'p narsa so'rayapsiz. Vaqtini qadrlagan odam hayotda albatta muvaffaqiyatga erishadi.

Ismat DIYOROV.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1946-yil 26-oktabr kuni korxonamizda – prokat sexida dastlabki mahsulot ishlab chiqarildi. Bu sex loyiha quvvatiga qachon erishganligi va bu paytda dastlabki yilga nisbatan qancha ko'p mahsulot ishlab chiqarilganligini bilasizmi? ***



O'zbekiston metallurgiya zavodi qachondan boshlab foyda hisobiga ishlay boshlagan? ***

1961-yil O'zbekiston metallurgiya zavodi nima bo'yicha qora metallurgiya vazirligi korxonalari orasida oldingi o'rinlarni egallagan? ***

Nimaning evaziga zavodimiz mehnat jamoasi qaysi yili yubiley mehnat nishoni bilan taqdirlangan va respublika "Mehnat shuhrati" kitobiga kiritilgan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Ishlab chiqarishda yuqori ko'rsatkichlarga erishganligi va sobiq ittifoqda o'tkazilgan

mehnat musobaqasida muvaffaqiyatlari uchun zavodimizga 1967-yil mamlakatning esdalik bayrog'i doimiy saqlash uchun topshirilgan. ***

1970-yilda bekobodlik metallurglar zimmlariga oshirilgan majburiyatlar olishib, rejadagi 4470 tonna o'rniga deyarli ikki baravar ko'p 8816 tonnadan ziyod prokat mahsulotlari ishlab chiqarganliklari uchun zavodimiz jamoasiga "Faxriy yorliq" berilgan. ***

O'tgan asrning 70-yillarida Qora metallurgiya vazirligi korxonalari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada choraklar yakuni bo'yicha zavodimiz 19 marta g'oliblikni egallagan. ***

"Metallurg" sport-sog'lomlashtirish majmuasida usti yopiq suzish havzasi 1992-yilda foydalanishga topshirilgan.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam 2015-
ro'yxatga olingan.